Yashil marketing korxonalarining atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillarini o'z biznes strategiyalariga integratsiya qilishi bilan tavsiflanadi [1]. Ushbu yondashuv nafaqat ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni, balki ishlab chiqarish, ta'minot, iste'mol va utilizatsiya bosqichlarida ekologik mas'uliyatni shakllantirishni ham nazarda tutadi [2]. Yashil marketingning barcha sohalarga chuqur integratsiyasi ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga yetkaziladigan zarar miqdorining sezilarli darajada kamayishiga, ayrim holatlarda esa uning oldini olishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, yashil marketing strategiyalarini joriy etgan korxonalar ekologik natijalar bilan bir qatorda barqaror iqtisodiy samaradorlikka ham erishmoqda. Jumladan, Germaniyada BMW kompaniyasi CO<sub>2</sub> chiqindilarini 40 foizga qisqartirgan holda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirgan, Shvetsiyada esa Electrolux kompaniyasi energiya tejamkor maishiy texnika ishlab chiqarish orqali yiliga 200 million kVt/soat elektr energiyasini tejashga muvaffaq bo'lgan [3]. Ushbu amaliyotlar korxonalarining barqarorlik maqsadlarini ifodalaydi hamda iste'molchilar nazarida brendning ekologik ishonchliligini mustahkamlaydi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ayniqsa O'zbekiston sharoitida yanada ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatda ekologik transformatsiya jarayonlari jadallashib, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni boshqarish va yashil korxonalarini rivojlantirish strategik ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [4]. Yashil marketing strategiyalarini korxonalar faoliyatiga samarali tatbiq etish ushbu maqsadlarni amalga oshirishda barqaror institutsional muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi xorijiy tajribani tahlil qilish asosida korxonalarda yashil marketing strategiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilish shartlarini aniqlash hamda MDH sharoitida ularni moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil marketing an'anaviy marketing amaliyotlariga tayanadi va marketing miksining barcha elementlarini belgilashda — mahsulot dizayni, narxlash, tarqatish hamda reklama jarayonlarida ekologik jihatlarni ustuvor qo'yishni nazarda tutadi. Shuningdek, yashil marketing faqat bitta soha bilan cheklanmasdan, deyarli barcha sanoat tarmoqlarida dunyo miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkinligi tasdiqlangan [5]. Mahsulotlarni qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarning har bir elementi ekologik tizimga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, har bir ishlab chiqarish tarmog'ida ishlab chiqarish jarayonlari ekologik mas'uliyat tamoyillariga asoslangan holda tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.



Atrof-muhitning jadal degradatsiyasi manfaatdor tomonlar tomonidan ekologik masalalarga bo'lgan e'tiborning kuchayishiga olib kelmoqda. Natijada, zamonaviy korxonalar uchun an'anaviy biznes yondashuvlarining samaradorligi pasayib, yashil marketing strategiyasi kabi ilg'or yondashuvlarni faoliyatga integratsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda [6]. Korxonalarda yashil marketing strategiyalarining qo'llanilishi ekologik muammolar fonida shakllanib borayotgan jamoatchilik ekologik ongi bilan uyg'unlashib, yangilanayotgan ehtiyoj va talablarga mos innovatsion takliflar yaratish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "iste'molchilarni o'qitish" hamda "ekologik toza qadoqlash" tushunchalari turli tarmoqlarda muntazam uchrab, yashil marketing strategiyalarining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ekologik masalalarga e'tibor ortib borayotganiga qaramay, yashil marketing tashabbuslarini amaliyotga joriy etish ayrim hududlarda hali cheklangan darajada qolmoqda [7]. Ushbu jarayonda davlat va hukumat institutlarining faol va tashabbuskor ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalariga ko'ra, iste'molchilarning 70 foizi mahsulot xaridi jarayonida ekologik omillarni hisobga oladi, biroq ularning faqat 45 foizi yashil mahsulotlar uchun qo'shimcha (premium) narx to'lashga tayyor. Bundan tashqari, ekologik bayonotlarga bo'lgan ishonch darajasi nisbatan past bo'lib, iste'molchilarning atigi 30 foizi kompaniyalar tomonidan ilgari surilayotgan ekologik da'volarning samimiyligiga ishonch bildiradi [8]. Shu jihatdan, iste'molchilarda shakllanib borayotgan ekologik ong ularning mahsulot tanlash jarayonida talabchanligini oshirib, kompaniyalar oldiga iste'molchi ishonchini mustahkamlash vazifasini qo'yimoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, iste'molchilar ekologik mahsulotlar uchun qo'shimcha to'lovni qabul qilishga tayyor bo'lib, bu holat kompaniyalarga narx strategiyalarini moslashuvchan tarzda shakllantirish imkonini beradi [9]. Natijada mahsulotlarning raqobatbardoshligi ortadi va yashil marketing hamda barqaror iste'mol konsepsiyalarini amalga oshirish uchun muhim iqtisodiy rag'bat shakllanadi. Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatdiki, greenwashing strategiyalari iste'molchilar ishonchiga, brend imijiga va korporativ oshkorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi [10]. Ekologik talablarga to'liq javob bermaydigan mahsulotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki oshirib ko'rsatish amaliyotlari kompaniya obro'siga putur yetkazishi va iste'molchilar ishonchini susaytirishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, marketing tahlil vositalaridan samarali foydalanish iste'molchilar ishtirokini oshiradi va bozor natijalarini yaxshilaydi, biroq uning shahar va qishloq iste'molchilarga ta'sirida ma'lum farqlar mavjud [11]. Marketing tadqiqotlarini tizimli ravishda olib borish iste'molchi talablaridagi o'zgarishlarni aniqlash, bozor kon'yunkturasini baholash va kompaniya faoliyatiga strategik ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda ayrim cheklovlar, jumladan infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud bo'lsa-da, yashil logistika tizimlarini joriy etish mamlakatning barqaror rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [12]. Mahsulot, narx, taqdimot va reklama vositalari orqali yashil marketingni amalga oshirish iste'molchilar tomonidan asosan ijobiy qabul qilinmoqda. Brendning ekologik samimiyligi hamda iste'molchilarning atrof-muhitga bo'lgan munosabati yashil marketing strategiyalarining ta'sirchanligini kuchaytiradi [13]. Kozhevina Rossiya sharoitida "yashil tadbirkorlik modellari"ni bozor segmentatsiyasi asosida shakllantirishni taklif etib, iste'molchilarni mas'ul iste'mol tamoyillariga ko'ra guruhlash orqali har bir segment uchun mos biznes-modellar ishlab chiqish imkoniyatini ta'kidlaydi [14]. Ichki majburiyatlar, sertifikatlash, shaffof kommunikatsiya va regulyator talablar yashil strategiyalarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, iste'molchilar ekologik mahsulotlar uchun qo'shimcha to'lovga tayyor bo'lib, ushbu ko'rsatkich ko'pincha 10–20 foizgacha yetadi [15]. Shu bilan birga, greenwashing — soxta ekologik da'volar hanz xavf sifatida mavjud bo'lib, yashil marketing strategiyalarining muvaffaqiyati sertifikatlash, mahsulotning hayotiy tsiklini tahlil qilish va real innovatsiyalar bilan mustahkamlanishini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, yashil marketing nafaqat strategik vosita, balki korxonalarining haqiqiy barqaror rivojlanishga erishishi yo'lidagi muhim shart sifatida namoyon bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan tadqiqotda mazkur mavzuning nazariy asoslarini shakllantirish maqsadida Web of Science hamda Scopus xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida indekslangan ilmiy maqolalardan foydalanildi. Ushbu tadqiqot doirasida yetakchi olimlarning ilmiy ishlari deduktiv va induktiv tahlil usullari asosida o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqotning amaliy ahamiyatini kuchaytirish maqsadida xorijiy mamlakatlar kompaniyalarida yashil marketing strategiyalarini qo'llash samaradorligiga oid olimlar hamda yetuk marketologlarning empirik tahlil natijalaridan foydalanildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil marketingning samaradorligi nafaqat marketing kommunikatsiyalari orqali, balki mahsulot va xizmatlarning haqiqiy ekologik xususiyatlarini ta'minlash orqali ham ortadi. Shu bilan birga, raqamli marketing vositalari hamda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar iste'molchilar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirish va bozor ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini bermoqda.

Hind milliiallari (1981–1996-yillar oralig'ida tug'ilgan avlod) orasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "green marketing mix" brendning "green purchase intention"ga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bunda "environmental attitude" omili moderatsiya yoki mediatsiya funksiyasini bajarishi bilan ahamiyatli hisoblanadi [16]. Yashil marketing Hindiston kabi tez rivojlanayotgan bozorlar uchun mahsulotlarni segmentatsiyalash va millennial auditoriyani jalb etish imkonini yaratadi, bunda narx siyosatining iste'molchi kutilmalariga mos bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

AQShdagi korxonalar yashil marketingdan asosan barqarorlikni ta'minlash va brend imijini mustahkamlash maqsadida foydalanadi. Jumladan, Walmart va Unilever kompaniyalari mahsulot qadoqlarida qayta ishlanadigan materiallardan foydalanib, iste'molchilarni ekologik ongli xarid qilishga undovchi kampaniyalarni amalga oshirmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, AQSh kompaniyalarida yashil marketing strategiyalarini joriy etish iste'molchi ishonchini kuchaytirib, brendga sodiqlik darajasini oshiradi [17].

Yirik AQSh korporatsiyalarida barqarorlik choralari (renewable energy, packaging reduction, supplier audits) uzoq muddatda operatsion xarajatlarni qisqartirishga va ma'lum darajada barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, greenwashing bilan bog'liq yuridik va reputatsion risklar mavjudligi ham amaliy misollar orqali tasdiqlanmoqda. Shu sababli iste'molchi ishonchini saqlab qolish uchun shaffoflik, mustaqil sertifikatlash va ochiq kommunikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi [18]. Kompaniyalarning iste'molchilar bilan ochiq muloqoti ularning brendga bo'lgan ishonchi va sodiqligini oshiradi.

Germaniyada korxonalar yashil marketingga alohida e'tibor qaratib, sifat, barqarorlik va ishonchlilik mezonlarini ustuvor deb biladi. Felix Schmitt tadqiqotlarida madaniy omillarning Germaniyada yashil marketing strategiyalarini qabul qilishda muhim rol o'ynashi aniqlanib, nemis iste'molchilari shaffoflik va brendning ekologik samimiyligini yuqori baholashi qayd etilgan.

Bundan tashqari, Andreas Hesse va boshqa olimlar "green brand extension" amaliyotlarini o'rganib, iste'molchilarning dastlabki shubhalari hamda ekologik brend kengayishining psixologik ta'sirini tahlil qilganlar [19]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dastlab ekologik barqaror mahsulotlarga ehtiyotkorlik bilan yondashilgan bo'lsa-da, brend tomonidan yashil marketing strategiyalarining izchil va to'g'ri amalga oshirilishi iste'molchilarning keyinchalik sodiq mijozlarga aylanishiga xizmat qiladi.

Germaniyada iste'molchilarning "green perceived value" (GPV) va "green trust" omillari "green purchase intention"ga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shaffoflik va aldovsiz yondashuv (transparency, non-deception) brendga bo'lgan ishonchni mustahkamlovchi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi [20]. "Green trust" darajasi oshgan sari sotib olish niyati va brend sodiqligi ham ortadi.

Xitoylik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda brendlarning yashil marketing strategiyalari (yashil mahsulot, reklama va kanal strategiyalari) iste'molchilarning ekologik xabardorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Ayniqsa, ekologik taqsimot kanallari ("green channel") eng kuchli ta'sir ko'rsatib, ekologik ongdagi o'zgarishlarning 34,9 % ini izohlab beradi [21]. Ushbu natijalar Xitoy tajribasi asosida korxonalar uchun eko-qadoqlash va yashil distribyutsiya tizimlarini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

O'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, kontingent qiymatlash va interval regressiya usullari orqali iste'molchilarning yashil turmush tarzi uchun qo'shimcha to'lovga tayyorligi baholangan. Xitoy shahar aholisi orasida ma'lum qismi (10–25 foizgacha) yashil mahsulotlar uchun qo'shimcha to'lovni qabul qilishga tayyor ekanligi aniqlangan [22]. Ushbu WTP (willingness to pay) ko'rsatkichlari kompaniyalarga yashil mahsulotlarni narx jihatidan to'g'ri pozitsiyalash bo'yicha amaliy asoslar yaratadi, bunda mahsulot sifati va narx mosligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shvetsiyada yirik kompaniyalar, ayniqsa ekologik me'yorlar qat'iy bo'lgan tarmoqlarda, yashil marketingdan bozorda farqlanish ("differentiation strategy") vositasi sifatida foydalanmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kompaniyalarning real ekologik harakatlari — eko-dizayn, energiya samaradorligi va chiqindilarni kamaytirish — reklama da'volariga qaraganda iste'molchi ishonchiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi [23]. Shved kompaniyalari yashil marketingni qisqa muddatli PR vositasi emas, balki uzoq muddatli korporativ barqarorlik strategiyasi sifatida qabul qiladi. Natijada yashil marketing ularga kuchli brend imijini shakllantirish, iste'molchi ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, yashil marketing tahdid emas, balki muhim strategik imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi (1-jadval).



1-jadval. 2022-2025-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida xorijiy mamlakatlarda korxonalarining yashil marketingdan foydalanish tajribalari [16,17,18,19,20,21,22,23]

Kategoriya	Hindiston	AQSh	Germaniya	Xitoy	Shvetsiya
<b>Sektor</b>	Millenniarlar	Global korporatsiyalar	Chakana savdo	San'at/urb. iste'molchilar	Katta ishlab chiqaruvchilar
<b>Asosiy yashil instrumentlar</b>	Green marketing mix	Supplier auditlar, energiya, qadoqlash, eko-dizayn.	Sertifikatlar, shaffof kommunikatsiya	Karbon yorliq, mahsulot WTP uchun foydalanish	Eko dizayn, energiya samaradorligi, qadoqlas
<b>Moliyaviy / operatsion natija</b>	Bozor ulushi o'sadi, agar marketing mos kelsa	Xarajatlarni qisqartirish va uzoq muddatli o'sish	Ijobiy(sotib olish niyati va brend sodiqligi)	Bozor segmentatsiyasi uchun imkon	Energiya va xarajatni tejas
<b>Asosiy to'siqlar</b>	Narx sezgirligi, ishonchsizlik	Regulyator bosim, yuridik risklar	Greewashing sezgirligi	Bilim yetishmasligi, sertifikatlash	Kapital talab, ta'minot zanjiri
<b>Amaliy tavsiya</b>	Fokusni maqsadli iste/molchi bilan muloqotga berish	Zanjir auditlar, shaffof taqdimot	Shaffof LCA ma'lumotlari	Mahsulotga aniq WTP hisoblash; ta'lim kampaniyalari	Investitsiya eko dizayn va samaradorlikka

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, besh mamlakat tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil marketing strategiyalarining samaradorligi asosan madaniy omillar, narx sezgirligi, shaffoflik darajasi hamda ekologik qadriyatlar bilan belgilanadi. AQShda yashil marketing faoliyatini, asosan, yirik global korporatsiyalar amalga oshiradi. Ushbu bozorda energiya boshqaruvi, ta'minot zanjiri auditlari hamda mahsulot qadoqlarini ekologiklashtirish kabi texnik chora-tadbirlar ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Natijada korxonalar uzoq muddatli istiqbolda operatsion xarajatlarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, qat'iy regulyator nazorat va yuridik risklar kompaniyalar faoliyatiga muayyan bosim omili sifatida ta'sir etib kelmoqda.

Germaniyada yashil sertifikatlar va shaffof kommunikatsiya yashil marketing strategiyalarining eng muhim instrumentlari sifatida keng qo'llaniladi. Iste'molchilarning greewashing holatlariga yuqori sezgirligi kompaniyalarni ekologik da'volarini aniq dalillar bilan asoslashga undaydi. Mazkur yondashuv brendga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, iste'molchilarning sotib olish niyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xitoy bozorida iste'molchilarni ekodizayn va karbon yorlig'i orqali yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu modelning asosiy afzalligi bozor segmentatsiyasi imkoniyatlarining kengayishi va iste'molchilarning ekologik ongini oshirishdan iborat. Shu bilan birga, ekologik bilimlarning yetarli emasligi, sertifikatlash tizimining bir xillikka keltirilmaganligi hamda iste'molchilarning qo'shimcha to'lovga tayyorligini (WTP) aniq baholash zarurati muhim metodologik masalalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shvetsiya yuqori darajada modernizatsiyalashgan ishlab chiqarish bozori sifatida energiya samaradorligi va ekodizaynni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuv dastlab katta miqdorda investitsiya talab etishiga qaramay, natijada korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirib, barqaror ishlab chiqarish modeliga bosqichma-bosqich o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, yashil marketing strategiyalarini joriy etish bo'yicha ilg'or tajribaga ega davlatlar qatoriga AQSh, Germaniya va Yaponiya kiradi. Quyidagi jadvalda ushbu mamlakatlarning yashil marketing bo'yicha korporativ strategiyalari tahlil qilingan (2-jadval).

2-jadval. Yashil marketing strategiyalari bo'yicha yetakchi davlatlar natijalari[24,25,26]

Davlat	Yetakchi kompaniya	Asosiy strategiya	Natija
AQSh	Tesla	Elektr transport vositalari (Zero emission)	2024-yilda 12 mln tonna CO2 chiqindisi kamaygan
Germaniya	BMW Group	Uglerod neytral ishlab chiqarish tizimi	Ishlab chiqarish xarajatlari 18% ga qisqargan
Yaponiya	Toyota	Gibrid va vodorod texnologiyalari	Yo'l-transport chiqindilari 25% ga kamaygan



2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchilar ekologik transformatsiyani turli yo'nalishlarda amalga oshirayotgan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy jihat — uglerod izini kamaytirishga qaratilgan qat'iy strategik yondashuvdir. Mazkur kompaniyalar texnologik modellari va bozor sharoitlari jihatidan farqlanishiga qaramay, har biri o'z institutsional va texnologik ustunliklaridan kelib chiqib ekologik raqobat ustunligini shakllantirishga intilmoqda.

AQShda faoliyat yurituvchi brendlar odatda iqlimga salbiy ta'sirni iste'molchiga bevosita yo'naltirilgan mahsulotlar orqali kamaytirishga urg'u beradi. Ushbu yondashuv bozor talabini shakllantirish hamda ekologik xabarlarini keng ommaga yetkazish imkonini yaratadi. Yevropa mamlakatlaridagi kompaniyalar esa ekologik barqarorlikni ko'proq ishlab chiqarish jarayonlarining o'zida ta'minlashga intilib, jarayonlarni qayta konfiguratsiyalash orqali energiya samaradorligini oshirish va resurs sarfini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratadi.

Sharq mamlakatlarida yashil transformatsiya yondashuvi, asosan, texnologik diversifikatsiyaga tayanadi. Ushbu model turli energiya platformalarini uyg'unlashtirish orqali transport sohasi uchun muqobil yoqilg'i ekotizimini shakllantirishni maqsad qiladi. Natijada, uzoq muddatda infratuzilma barqarorligi ta'minlanadi va bitta texnologiyaga haddan tashqari bog'liqlik bilan bog'liq xavflar kamayadi.

Mazkur uch xil yondashuvni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ekologik innovatsiyalarni joriy etish muayyan investitsiyalarni talab etadi, biroq to'g'ri tanlangan strategik model moliyaviy samaradorlikni ham sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. Eng muhimi, kompaniyalar ekologik maqsadlarni bozor ehtiyojlari va texnologik imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirganida, ushbu tashabbuslarning real va barqaror ta'siri namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, yashil strategiyalar hozirgi kunda raqobat ustunligini shakllantiruvchi omil bo'lib, istiqbolda butun sanoat tarmoqlarining transformatsiya standartiga aylanishi kutilmoqda [27].

Xalqaro tadqiqotlar yashil marketing strategiyalarining samaradorligi mamlakatlar kesimida sezilarli farqlanishini ko'rsatsa-da, umumiy global tendensiya iste'molchilarning ekologik ongining o'sishi va korxonalarining barqarorlikka yo'naltirilgan tashabbuslari yashil marketingni zamonaviy biznes modellari uchun ajralmas tarkibiy qismga aylantirayotganini tasdiqlaydi. Turli mamlakatlar misolida olingan natijalar ushbu jarayon milliy madaniyat, iqtisodiy rivojlanish darajasi va bozor sharoitlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba shuni anglatadiki, yashil marketing strategiyalarining muvaffaqiyati ikki asosiy omilga — iste'molchi xulqi (talab tomoni) va korxonalar strategiyasi (taklif tomoni)ga tayangan holda shakllanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarda yashil marketing strategiyalarining shakllanishi nafaqat ekologik talablarning kuchayishi, balki iste'molchilar ehtiyojlari hamda barqaror iqtisodiy rivojlanish tamoyillarining uyg'unlashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Yashil marketingning asosiy ustunligi iste'molchi ongiga ekologik qadriyatlarni singdirish va barqaror iste'mol modelini shakllantirish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, iste'molchilarning ekologik xabardorligi ortishi jarayonida ularning mahsulot va brendlarga nisbatan tanlovchanligi kuchayib bormoqda. Xususan, greenwashing holatlarining keng tarqalganligi ekologik da'volarga bo'lgan ishonchni pasaytirib, kompaniyalardan yanada shaffof va asosli yondashuvni talab etmoqda.

O'zbekiston sharoitida yashil marketing strategiyalarini samarali joriy etish uchun eng dolzarb masalalardan biri korxonalarining tashkiliy tayyorgarligini mustahkamlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu omillar yashil strategiyalar samaradorligini oshiruvchi muhim drayverlar sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli marketing vositalari, data-analitika va ekologik tajriba almashinuvi mexanizmlaridan foydalanish O'zbekiston korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlash bilan birga, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston korxonalarini uchun yashil marketing strategiyalari bozorda farqlanishni ta'minlash, brendga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, sodiq iste'molchilar segmentini shakllantirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda, eng muhimi, eksport imkoniyatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan muhim strategik imkoniyat hisoblanadi. Yashil marketingning istiqbollari esa nafaqat ekologik afzalliklar, balki raqamli texnologiyalarning rivojlanish darajasi, iste'molchi ishonchi, transmilliy standartlarga moslashuv va korxonalarda barqaror rivojlanish madaniyatining shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Olingan natijalar yashil marketingni mustahkam ilmiy asosga ega bo'lgan zamonaviy strategik boshqaruv elementi sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Purwanti, I., Abadi, M. D., & Suyanto, U. Y. (2024). Green marketing: Strategy for gaining sustainable competitive advantage in Industry 4.0. *Manajemen Bisnis*, 9(2). <https://doi.org/10.22219/jmb.v9i2.10039>
2. Ottman, J. A. (2011). *The New Rules of Green Marketing: Strategies, Tools, and Inspiration for Sustainable Branding*. Greenleaf Publishing. <https://doi.org/10.9774/GLEAF.978-1-909493-07-4>





3. BMW Group. (2023). Sustainability Report. <https://www.bmwgroup.com/en/sustainability>
4. Priority Aspects of Developing the Green Economy in Uzbekistan. (2025). *Economic Horizons: Journal of Business, Economics, and Finance*, 1(4), 34–42. <https://ecomindspress.com/index.php/eh/article/view/53>
5. Tolić, I. (2024). Green marketing is a logical answer to the consumer society. *MAP Social Sciences*, 5, 1–11. <https://doi.org/10.53880/2744-2454.2024.5.1>
6. Ara, H., Yeap, J. A. L., & Hassan, S. H. (2020). Adoption of green marketing strategy: A conceptual view based on stakeholder theory. In *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences (EPSBS)*. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2020.10.22>
7. Alzu'bi, R. M., Kontor, E., & Kovács, S. (2025). A qualitative study of using green marketing practices within Jordanian food companies: A content analysis approach. *Discover Sustainability*, 6, 430. <https://doi.org/10.1007/s43621-025-01301-x>
8. Mansour, A., Al-Ahmed, H., Deek, A., Alshaketheep, K., Al-Ma'aitah, M., Asfour, B., & Alshurideh, M. (2024). Developing green marketing strategies: A comprehensive analysis of consumer behaviour and business practices. *International Review of Management and Marketing*, 14(6), 206–212. <https://doi.org/10.32479/irmm.17345>
9. Geng, J., Zhang, W., & Yang, L. (2023). Public willingness to pay for a green lifestyle in China: A contingent valuation study in five East-China cities. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 20(3), 2185. <https://doi.org/10.3390/ijerph20032185>
10. Persakis, A., Nikolopoulos, T., Negkakis, I. C., et al. (2025). Greenwashing in marketing: A systematic literature review and bibliometric analysis. *International Review of Public and Nonprofit Marketing*. <https://doi.org/10.1007/s12208-025-00452-x>
11. Usmonova, D. M. (2025). Effective use of marketing analytics in green advertising activities of grape-growing enterprises. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(2). <https://doi.org/10.5281/zenodo.15017204>
12. Turakulova, D., & Ismoilova, D. (2025). The role of green logistics in Uzbekistan and international trends. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15803439>
13. Kaur, B. (2022). Green marketing strategies, environmental attitude, and green buying intention: Evidence from Indian millennials. *Sustainability*, 14(10), 6107. <https://doi.org/10.3390/su14106107>
14. Кожевина, О. В., & Беляевская-Плотник, Л. А. (2022). Формирование моделей «зелёного» предпринимательства на основе сегментации рынка с учетом принципов ответственного потребления. *МИР (Модернизация. Инновации. Развитие)*, 13(1), 111–125. <https://doi.org/10.18184/2079-4665.2022.13.1.111-125>
15. Oesman, I. F., Sari, D., Helmi, A., & Komaladewi, R. (2024). Factors influencing consumers' willingness to pay more for green convenience goods in Indonesia. *Innovative Marketing*, 20(3). [https://doi.org/10.21511/im.20\(3\).2024.09](https://doi.org/10.21511/im.20(3).2024.09)
16. Hamann, P. M., & Schiemann, F. (2021). Organizational performance as a set of four dimensions: An empirical analysis. *Journal of Business Research*. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2021.01.012>
17. Schmitt, F. (2024). How cultural differences affect the adoption and effectiveness of green marketing strategies in Germany. *International Journal of Strategic Marketing Practice*, 6(1), 47–59. <https://doi.org/10.47604/ijssmp.2457>
18. Wollenberg, A. (2024). Effects of sustainability efforts on organic growth in a multinational consumer goods firm: The case of Procter & Gamble (2002–2022). *Journal of Operations & Applied Management Studies*, 12(4), 139–158.
19. Graça, S., & Kharé, V. (2024). The influence of GPV, trust, and satisfaction on intention to buy green products in Germany and Brazil. *Journal of Sustainable Research*, 6(2), e240013. <https://doi.org/10.20900/jsr20240013>
20. Yao, Z. (2025). The impact of the brand's green marketing strategy on consumers' environmental awareness. *Journal of Fintech and Business Analysis*, 2(2), 56–71. <https://doi.org/10.54254/3049-5768/2025.25993>
21. Geng, J., Yang, N., Zhang, W., & Yang, L. (2023). Public willingness to pay for green lifestyle in China: A contingent valuation method based on integrated model. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 20(3), 2185. <https://doi.org/10.3390/ijerph20032185>
22. Afnani, V., & Gustavsson, E. (2022). Green marketing: An opportunity or threat? A study about Swedish companies and their sustainability efforts to secure the future of upcoming generations (Student essay). University of Gothenburg, GUPEA Repository. <https://gupea.ub.gu.se/handle/2077/70684>
23. Tesla, Inc. (2024). Tesla Impact Report 2024: Environmental, Social & Governance Performance. <https://www.tesla.com/impact>
24. BMW Group. (2023). BMW Group Sustainability Report 2023. <https://www.bmwgroup.com/en/sustainability/reporting.html>
25. Toyota Motor Corporation. (2024). Toyota Environmental Challenge 2050: Progress Report 2024. <https://global.toyota/en/sustainability/environment>
26. Абдурашидова, Н. (2021). Повышение эффективности автомобильных предприятий. *Экономика и образование*, (4), 246–249.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---